

ZAMONAVIY OILANING TARBIYAVIY SALOHİYATI

UDK 373

Toshkent shahridagi Puchon

universiteti o'qituvchisi,

Tasheva Nasiba Salimovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy oilaning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashdagi o'rni va tarbiyaviy salohiyati keng tahlil etilgan. Unda oilaning bola shaxsini shakllantirishdagi asosiy tarbiyaviy funksiyalari, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirishdagi roli va tarbiya jarayonidagi zamonaviy yondashuvlar yoritib berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda oilaviy muhitning ijobiy-psixologik sharoitlarini yaratish, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish zarurligi asoslab berilgan. Maqola pedagog va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan metodik tavsiyalar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: oila, maktabgacha ta'lim, tarbiya, muhit, munosabatlar, hamkorlik, ta'sir.

Annotation: This article provides an extensive analysis of the modern family's role and educational potential in raising preschool-aged children. It highlights the family's primary educational functions in shaping a child's personality, its role in instilling socio-spiritual values, and contemporary approaches to the upbringing process. The necessity of creating positive psychological conditions within the family environment and enhancing parents' pedagogical culture for the comprehensive development of preschool-aged children is substantiated. The article is enriched with methodological recommendations of practical importance for educators and parents.

Keywords: family, preschool education, upbringing, environment, relationships, cooperation, influence.

Har birimizning o'z hayotimiz bor. O'z tanish-bilishlar doirasi, istaklari, imkoniyatlari, odatlari - bugungi kunning murakkab dunyosida yashashning o'ziga xos muhitimiz mavjud. Doimo yonida bo'lib, yordam beruvchi, xalaqit qiluvchi, hayotini baham ko'ruvchi, g'ashini keltiruvchi, shu bilan birga shifo beruvchi o'z farzandlarimiz bor. Farzandlarimiz do'stimizga, suyanchig'imizga aylanib, ezgu ishlarimizni davom ettiruvchi avlodimizdir. Shuningdek, ota-onalar hayotlarini nimaga baxshida etgan bo'lsa, ular uchun nima qadrli va ahamiyatli bo'lsa, aynan o'sha narsalarga qarshi chiqib, dushman, raqib va barchasini ag'dar-to'ntar qiluvchi kimsalarga aylanib qolishlari ham mumkin. Farzandlarimiz kelajakda kim bo'lishadi? Bu bizning qo'limizda. Bu bizning ularga bo'lgan muhabbatimizga, hayotiy nuqtai nazarimizga, ularga va boshqa barcha insonlarga ko'rsatgan mehribonligimiz darajasiga bog'liq. Maqola ertaga fuqaro, kurashchi, vatanparvar bo'ladigan yoki bo'lmaydigan bolalar haqida...

Zamonaviy oilada tarbiyaviy salohiyatning muvaffaqiyati uchun zarur shartlar: oilaviy muhit; ota-onalarning vakolatlari; bolani o'z vaqtida mehnatga jalb etish.

Tarbiya - bu faqatgina maktabgacha yoshdagi bolaga ta'lim berayotganimizda, uni koyiganimizda yoki rag'batlantirganimizda unga ta'sir o'tkazish qobiliyati emas. Ota-onalarning namunasi eng muhim rol o'ynaydi, garchi ular o'z ta'sirlaridan bexabar bo'lsalar ham. Bolalarning har qanday yutuqlari doimo kattalarning qo'llab-quvvatlashiga bog'liq bo'ladi. Oilada, barcha a'zolar bir-birini o'rgatadi va tarbiyalaydi. Bu bog'liqlikni payqash qiyin. Rassom ota o'g'lining qobiliyatlari rivojlanishiga hech qanday ta'sir ko'rsatmayotganiga chin ko'ngildan ishonadi, chunki u o'g'li bilan muntazam ravishda rasm chizish mashg'ulotlarini o'tkazmaydi. Uning ishlash paytida o'g'li yonida bo'lgani, bola san'at kitoblarini va xonadagi rasmlarni tomosha qilgani, otasining do'stlari - rassomlar bilan suhbatlariga guvoh bo'lgani, va nihoyat, bu bolaning har bir rasmini kattalar malakali tarzda baholab, muhokama qilganlari - bularning barchasiga ota-onalar e'tibor bermaydilar. Chunki bular bolaning kundalik hayotining oddiy bir qismi, xolos. Kattalarning birgina so'zi yoki harakati ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyat

kasb etib, bola hayotida chuqur iz qoldirishi mumkin. Oddiy tabassum yoki boshni ma'qullovchi qimirlatish ham xuddi shunday samara beradi. Bola o'sib ulg'aygan sayin aniq hayotiy voqealarni unutib boradi, faqatgina shaxsiyatni shakllantiradigan narsalar qoladi.

Shu sababli, oilada qulay ta'lim sharoitining asosiy omillaridan biri - oiladagi ijobiy ruhiy muhit ekanligini ta'kidlash mumkin. Bilganingizdek, muhim shartlardan biri oilaviy muhitdir. Oila a'zolarining bir-biri bilan muloqot qilish usulini eng avvalo nima belgilaydi. Yaqin kishisini qiyin paytda tinglash, qo'llab-quvvatlash qobiliyati. Ota-onalar o'rtasidagi hurmat va samimiylik.

Oilada ta'lim-tarbiyaning ikkinchi sharti - ota-onalarning bolaga maqsadli ta'sir ko'rsatadigan ta'limiy usul va uslublaridir. Buning uchun bola bilan katta odamning hamkorligi albatta zarur.

L.S. Vigotskiy nazariy va eksperimental jihatdan shuni ko'rsatdiki, bola kattalar bilan birgalikda bajaradigan ishni mustaqil ravishda faqat ma'lum vaqt o'tgach, ba'zan esa ancha uzoq muddat o'tganidan keyingina uddalay oladi. Bu bolaga qiyin bo'lgan hamma narsani kattalar bajarib berishi sababli yuz bermaydi. Yo'q, masala boshqa narsa - katta odam bilan hamkorlik qilish shunday vaziyatni vujudga keltiradiki, bunda bola o'z qobiliyatlari rivojlanishining allaqachon erishgan darajasidan o'zib ketadi, go'yo o'z kelajagiga "sakrab o'tadi". L.S. Vigotskiy bu hodisani bolaning "yaqin rivojlanish zonasi" deb atagan edi.

Oilada bola tarbiyasining usullari – bu ota-onalarning farzandlari ongiga va xulq-atvoriga pedagogik ta'sir o'tkazish yo'llaridir.

Ishontirish - pedagogning bolalar ongi va his-tuyg'ulariga murojaat qilish usuli. Ular bilan suhbatlashish va tushuntirish ishontirishning yagona vositasi emas. To'g'ri tanlangan kitob, film yoki radio eshittirish ham ishonch hosil qilish vositasi bo'lishi mumkin; shuningdek, his-tuyg'ularga ta'sir etuvchi musiqa asarlari, san'at va tasviriy san'at namunalari "go'zallik qonunlari" asosida yashashni o'rgatadi. Yaxshi namuna ishontirishda muhim rol o'ynaydi, chunki maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar yaxshi hamda yomon xatti-harakatlarga taqlid qilishga moyil bo'ladilar. Bolalar ota-onalarining xulq-atvorini kuzatib, ularning qiliqlarini

aynan takrorlaydilar. Nihoyat, bolalarni o'zlarining shaxsiy tajribalari ishontiradi.

Talab. Talablar bo'lmasa, tarbiya ham bo'lmaydi. Maktabgacha yoshdagi bolaning ota-onasida allaqachon qat'iy talablar mavjud: bolaning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlari bor va u ularni bajarishi shart.

Bolalarga qo'yiladigan talablarning asosiy shakli buyruq berishdir. Qat'iy, lekin shu bilan birga xotirjam va muvozanatli ohangdan foydalanish kerak. Ota-onalar asabiylashmasligi, baqirmasligi va jahli chiqmasligi kerak. Agar ota yoki ona biror narsadan hayajonlangan bo'lsa, talab qo'yishdan o'zini tiyish ma'qulroq. Talab bola bajarishi mumkin bo'ladigan darajada bo'lishi kerak. Agar ota o'g'liga bajarib bo'lmaydigan vazifa qo'ysa, bu vazifaning amalga oshmasligi tabiiy. Agar bu holat bir-ikki martadan ko'p takrorlansa, bolada itoatsizlik tajribasini shakllantirish uchun juda qulay sharoit vujudga keladi. Yana shuni esda tutish kerakki: agar ota biror narsani buyurgan yoki taqiqlagan bo'lsa, ona otaning taqiqlagan narsasini bekor qilmasligi yoki unga ruxsat bermasligi lozim. Albatta, buning aksi ham to'g'ri.

Rag'batlantirish usullari: ma'qullash, maqtov, ishonch bildirish, birgalikda o'yin o'ynash va sayr qilish, moddiy rag'batlantirish. Ma'qullash oilaviy tarbiya amaliyotida keng qo'llanib kelinmoqda. Bola hali shakllanish jarayonida bo'lgani uchun o'z xatti-harakatlariga baho berilishiga va ma'qullanishiga juda muhtoj. Bu uning harakatlari va xulq-atvorining to'g'riligini tasdiqlab, nimaning yaxshi, nimaning yomon ekanligini tushunib olishiga yordam beradi. Bolalarga ishonch ko'rsatish, samimiylikka undash, ularning xatti-harakatlarining sabablarini hurmat qilish va to'g'ri yoki noto'g'riligini tushinishda ko'maklashish juda muhimdir.

Maqtov - ota-onalarning kichkintoylarining muayyan xatti-harakatlari yuzasidan mamnuniyatini ifodalashidir. U ko'p so'zli bo'lishi shart emas, ko'pincha bitta so'zning o'zi yetarli: "Barakalla!". Ota-onalar maqtovga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishlari kerak, chunki haddan tashqari maqtash ham, ortiqcha qattiqqo'llik ham bir xil darajada zararlidir.

Jazo. Jazolarni qo'llashning pedagogik talablari: bolalarga hurmat, adolatlilik, salbiy xatti-harakat va jazo o'rtasidagi mutanosiblik, qat'iyatlilik.

Uchinchi shart - ota-onalarning huquq va majburiyatlari. Ota yoki onaning

ta'siri bola uchun eng asosiy obro' hisoblanadi. Bolaning ishonchini qozonish uchun, eng avvalo, o'zingizga va xatti-harakatlaringizga nisbatan talabchan bo'lishingiz, unga har bir ishda namuna ko'rsatishingiz lozim. Ba'zi ota-onalar farzandlari ularni faqatgina ota-ona bo'lganligi uchun hurmat qilishlari kerak deb hisoblashadi. Bu noto'g'ri qarashdir. Hurmat va obro'-e'tibor qozonish kerak.

Bolaning shaxsini rivojlantirish uchun oilaning o'ziga xos shaxsiy muhit sifatidagi xususiyatlariga asoslanib, oilaviy tarbiya tamoyillari tizimi quyidagicha shakllantirilishi kerak:

- bolalar samimiylik va mehr-muhabbat muhitida o'sib-ulg'ayishlari hamda tarbiya olishlari lozim;
- ota-onalar farzandlarini qanday bo'lsa, shunday qabul qilishlari va tushunishlari lozim;
- ta'lim-tarbiyaviy ta'sirlar yosh, jinsiy va shaxsiy xususiyatlarga asoslanishi lozim;
- oilaviy tarbiyaning asosini insonga bo'lgan samimiy, chuqur hurmat va undan yuqori talablar qo'yishning dialektik birligi tashkil etmog'i lozim;
- ota-onalarning shaxsiyati - bolalar uchun taqlid qilishning eng mukammal namunasi hisoblanadi;
- ta'lim rivojlanayotgan insondagi ijobiy jihatlarga tayanib qurilishi kerak;
- oilada uyushtiriladigan barcha tadbirlar o'yin asosida tashkil etilishi lozim;
- oilada bolalar bilan muloqotning asosiy uslubi va ohangi optimizm va xushchaqchqlikka asoslanishi kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash oddiy bilim, ko'nikma, qobiliyat va xulq-atvorni yetkazishdan ko'ra muhimroq jarayonga aylanishi kerak. Bu jarayon bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan murakkab va keng qamrovli yondashuv bo'lishi lozim. Bugungi kunda haqiqiy ta'lim - ota-onalar va bolalar o'rtasidagi uzluksiz muloqotdan iborat. Bu jarayonda maktabgacha yoshdagi bola jamiyatning to'laqonli a'zosiga aylanishiga va hayotini mazmun bilan boyitishiga yordam beradigan mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini tobora chuqurroq o'zlashtirib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кучмаева О.В., Марыганова Е.А., Петрякова О.Л., Синельников А.Б. Программа и инструментарий проведения мониторинга воспитательного потенциала семьи. – М.: ГосНИИ семьи и воспитания, 2006.
2. Полуянов Ю.А. Педагогика родителям. – М.: «Педагогика», 1988.
3. Столин В.В. Семья как объект психологической диагностики и неврачебной психотерапии. – В кн.: Семья и формирование личности. – М., 1981.
4. Шнейдер Л.Б. Психология семейных отношений. Курс лекций. – М.: Апрель-Пресс; ЭКСМО-Пресс, 2000.
5. Т.А. Куликова Семейная педагогика и домашнее воспитание Москва Academia 2020
6. O.Hasanboyeva va b. Oila pedagogikasi Toshkent: "Aloqachi", 2007